INSULT O‘TKAZGAN BEMORLARDA MOTOR DISFUNKSIYASINI FARMOKOPUNKTURA VA KINEZOTERAPIYA USULLARI YORDAMIDA REABILITATSION CHORA-TADBIRLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Umirova Surayyo Mamurjonovna - C.M.Sc., assistent
Bebitova Shoxsanam Elmurod qizi - magistr
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot, insultdan so'ng motor disfunksiyasi bo'lgan bemorlarda farmakopunktura va kinezoterapiya usullaridan foydalanib, reabilitatsiya jarayonini optimallashtirishni o'rganadi. Insult, markaziy nerv tizimining shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan va ko'pincha motor disfunksiyani keltirib chiqaradigan og'ir kasallikdir. Tadqiqotda farmakopunktura (akupunktura) va kinezoterapiyaning kombinatsiyalangan ta'sirini tahlil qilish orqali, bemorlarning tiklanish davri, motor faollik va umumiy salomatlik darajasini yaxshilashga qaratilgan yangi yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Maqsad, reabilitatsiya kurslarini optimallashtirish va bemorlarning ijtimoiy faoliyatga qaytishini tezlashtirishdir. Tadqiqotning natijalari, motor disfunksiyalarni kamaytirish va bemorlar sifatini oshirishda farmakopunktura va kinezoterapiyaning samaradorligini ko'rsatishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *insult, motor disfunksiya, farmakopunktura, kinezoterapiya, reabilitatsiya, reabilitatsion chora-tadbirlar, markaziy nerv tizimi, tiklanish, salomatlik, bemorlar.*

OPTIMIZATION OF REHABILITATION MEASURES USING PHARMACOPUNCTURE AND KINESOTHERAPY METHODS FOR MOTOR DYSFUNCTION IN STROKE PATIENTS

Umirova Surayyo Mamurjonovna – C.M.Sc., assistant
Bebitova Shoxsanam Elmurod qizi – master's student
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract: *This study investigates the optimization of the rehabilitation process in patients with motor dysfunction after stroke using pharmacopuncture and kinesiotherapy methods. Stroke is a severe disease resulting from damage to the central nervous system and often causes motor dysfunction. By analyzing the combined effects of pharmacopuncture (acupuncture) and kinesiotherapy, the study examines new approaches aimed at improving the recovery period, motor activity and general health of patients. The goal is to optimize rehabilitation courses and accelerate patients' return to social activities. The results of the study may show the effectiveness of pharmacopuncture and kinesotherapy in reducing motor dysfunctions and improving the quality of patients.*

Key words: *stroke, motor dysfunction, pharmacopuncture, kinesiotherapy, rehabilitation, rehabilitation measures, central nervous system, recovery, health, patients.*

ОПТИМИЗАЦИЯ РЕАБИЛИТАЦИОННЫХ МЕРОПРИЯТИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ ФАРМАКОПУНКТУРЫ И КИНЕЗОТЕРАПИИ ПРИ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДИСФУНКЦИИ У БОЛЬНЫХ, ПЕРЕНЕСШИХ ИНСУЛЬТ

Умирова Сурайё Мамуржоновна – к.м.н., ассистент
Бебитова Шохсанам Элмуродовна – магистр
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *В настоящем исследовании изучена оптимизация процесса реабилитации больных с двигательной дисфункцией после инсульта с использованием методов фармакопунктуры и кинезиотерапии. Инсульт – тяжелое заболевание, возникающее в результате поражения центральной нервной системы и часто вызывающее двигательную дисфункцию. На основе анализа комбинированного воздействия фармакопунктуры (иглоукалывания) и кинезиотерапии в исследовании рассматриваются новые подходы, направленные на улучшение восстановительного периода, двигательной активности и общего состояния здоровья пациентов. Цель — оптимизировать курсы реабилитации и ускорить возвращение пациентов к общественной деятельности. Результаты исследования могут показать эффективность фармакопунктуры и кинезотерапии в уменьшении двигательных дисфункций и улучшении качества лечения пациентов.*

Ключевые слова*: инсульт, двигательная дисфункция, фармакопунктура, кинезиотерапия, реабилитация, реабилитационные мероприятия, центральная нервная система, восстановление, здоровье, пациенты.*

Dolzarbligi. Insult, bugungi kunda dunyo miqyosida o‘lim va nogironlikning asosiy sabablaridan biri sifatida sog‘liqni saqlash tizimining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, insult har yili millionlab insonlarni nogironlikka olib keladi va ular orasida motor disfunktsiyasi bo‘lgan bemorlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Insultdan keyin rivojlanadigan motor disfunktsiyalari bemorlarning harakat qobiliyatini cheklab, ularning mustaqil yashash imkoniyatini sezilarli darajada pasaytiradi.Reabilitatsiya jarayonida bemorlarning motor faoliyatini tiklash, mushaklar kuchini oshirish va mushaklarning funksional koordinatsiyasini qayta tiklash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. An’anaviy davolash usullari tiklanish jarayonida ma’lum natijalarga olib kelsa-da, ko‘p hollarda bu jarayon uzoq davom etadi va bemorlar hayot sifatini to‘liq tiklash qiyin kechadi. Shu sababli reabilitatsiya jarayonini tezlashtiruvchi va optimallashtiruvchi innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj yuqori.Farmakopunktura va kinezoterapiya kombinatsiyasi reabilitatsiyada yangi va istiqbolli usullar sifatida ko‘rilmoqda. Farmakopunktura – bu an’anaviy akupunkturani farmakologik davolash bilan birlashtiruvchi usul bo‘lib, tananing bioaktiv nuqtalariga dorivor moddalar kiritish orqali tiklanish jarayonini rag‘batlantiradi. Kinezoterapiya esa harakatlarni tiklashga qaratilgan jismoniy mashqlar majmuasini o‘z ichiga oladi va mushaklarning faoliyatini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda insultdan keyingi reabilitatsiyani optimallashtirish bo‘yicha farmakopunktura va kinezoterapiya kombinatsiyasining samaradorligini ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliyotga joriy qilish juda dolzarbdir. Ushbu usullarning birgalikda qo‘llanilishi nafaqat motor funksiyalarni tiklashga, balki bemorlarning umumiy hayot sifatini yaxshilashga, ruhiy va ijtimoiy moslashuviga ham xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ushbu yondashuvni ilmiy asoslash va uning klinik samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi insult o‘tkazgan bemorlarda motor disfunksiyasini farmakopunktura va kinezoterapiya usullarini birgalikda qo‘llash orqali reabilitatsion chora-tadbirlarni optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotga insult o‘tkazgan, motor disfunktsiyasi mavjud bo‘lgan va reabilitatsiyaga muhtoj bo‘lgan 60 nafar bemor tanlab olindi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi. Birinchi asosiy guruhdagi 30 nafar bemorlarga standart terapiya bilan birgalikda farmakopunktura va kinezoterapiya usullari kombinatsion tarzda qo‘llanildi. Ikkinchi nazorat guruhidagi 30 nafar bemorlarga esa faqat bazaviy davolash va an’anaviy reabilitatsion usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Farmakopunktura usuli orqali an’anaviy akupunktura nuqtalariga mikrodozalarda dorivor moddalar kiritildi. Bu moddalar, asosan, B guruh vitaminlari va mushak relaksantlari bo‘lib, ular nerv tizimining faoliyatini rag‘batlantirish va tiklanish jarayonini tezlashtirish, hamda mushaklar tonusini pasaytirishga mo‘ljallangan edi. Kinezoterapevtik davolash dasturi bo‘yicha har bir bemorning motor disfunktsiya darajasiga mos ravishda ishlab chiqildi. Ushbu dasturga harakat koordinatsiyasini yaxshilash, mushak kuchini oshirish va tiklanishni tezlashtirishga qaratilgan maxsus jismoniy mashqlar kiritildi. Mashg‘ulotlar reabilitolog shifokor va fizioterapevt nazorati ostida amalga oshirildi.


Bemorlarning holati quyidagi mezonlar asosida baholandi:

1. Motor faoliyat: Mushak kuchi va harakat diapazoni maxsus testlar yordamida o‘lchandi.

2. Psixologik holat: Stress va depressiya darajasi standart shkala yordamida baholandi.

3. Hayot sifati: Kundalik faoliyatni bajarish qobiliyati va ijtimoiy faollik darajasi o‘rganildi.

Insult o‘tkazgan bemorlarda standart terapiyaga qo‘shimcha ravishda farmokopunktura va kinezoterapiya amaliyotini bajarishdan keyingi natijalar:



Rasm 1. **Asosiy guruh bemorlarining reabilitatsiyadan oldingi va keyingi NIHSS shkalasi bo‘yicha baholanishi**

Bunda 30 nafar tanlab olingan bemorlar reabilitatsion chora-tadbirlardan farmokopunktura va kinezoterapiya usullari bilan birgalikda standart terapiya qo‘llanilgandan keyingi holatning o‘rtacha statistikasi aks etgan. Bemorlar 2 oy davomida davolanishdan so‘ng olingan natijalar. Ushbu bemorlarning qo‘l harakatlari,oyoq harakatlari,yuz harakatlari va sensor funksiyasi bo‘yicha tariflangan statistika va NIHSS shkalasi bo‘yicha ballik sistemada o ‘zgarishlar tariflangan.

Jadval 1.

Asosiy va nazorat guruhidagi bemorlarning farmakopunktura va kinezioterapiyaning solishtirma tahlili

NIHSS shkalasi bo‘yicha baholash	Asosiy guruh (30 nafar) Reabilitatsiyadan oldin	Reabilitatsiyadan keyin	Nazorat guruh (30 nafar) Reabilitatsiyadan oldin	Reabilitatsiyadan keyin
Qo‘l harakatlari	5 ta bemor 2 ball	5ta bemor 0 ball	5ta bemor 2 ball	5ta bemor 1 ball
Oyoq harakatlari	10ta bemor 3 ball	10 ta bemor 1 ball	10ta bemor 3 ball	10ta bemor 2 ball
Yuz harakati	5ta bemor 2 ball	5ta bemor 0 ball	5ta bemor 2 ball	5ta bemor 2 ball
Sensor funksiyasi	10ta bemor 1 ball	10ta bemor 0 ball	10ta bemor 1 ball	10ta bemor 1ball

Ushbu jadvalda 60 ta bemorlar ikki guruhga ya’ni, asosiy va nazorat guruhlarida 2 oy davomida davolanishdan so‘ng olingan natijalar. Bunda bemorlarning qo‘l harakatlari, oyoq harakatlari, yuzda mimic mushaklarning harakatlari va sensor funksiyasi bo‘yicha tariflangan. Bemorlar soni bo‘yicha NIHSS shkalasiga asoslanib ballik sistemada o ‘zgarishlar tariflangan.

Xulosa. Farmakopunktura va kinezoterapiya usullarini birgalikda qo‘llash insult o‘tkazgan bemorlarda motor disfunktsiyalarni tiklashda yuqori samaradorlikka ega bo‘lishi mumkin. Ushbu usullar nafaqat mushak kuchini va harakat diapazonini yaxshilaydi, balki bemorlarning umumiy ruhiy holatini va hayot sifatini ham sezilarli darajada oshiradi. Dastlabki kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, farmakopunktura va kinezoterapiyaning kombinatsiyasi boshqa an’anaviy usullarga nisbatan samaraliroq bo‘lib, reabilitatsiya jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Reabilitatsiyaning ushbu usullarini kombinatsion tarzda qo‘llash, bemorlarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda ham muhim ahamiyatga egadir. Farmakopunktura va kinezoterapiyaning insultdan keyingi reabilitatsiyadagi o‘rnini aniq baholash uchun kelgusida yanada ko‘proq tadqiqot ishlarini olib boorish va kelgusida reabilitatsiya usullarini yana ham takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Smith J. A., & Brown P. R. (2022). Rehabilitation after stroke: A systematic review of complementary therapies. Journal of Neurological Rehabilitation, 45(3), 233-245.
2. Lee K. H., & Chang W. H. (2021). Acupuncture in post-stroke rehabilitation: A review of current clinical practices. Stroke Research and Treatment, 13(6), 678-689.
3. Ruzmetov A. M., & Shodmonov M. S. (2021). Insultdan keyingi bemorlarni reabilitatsiya qilishda zamonaviy usullar. Tibbiyot fanlari, 3(1), 45-50.
4. Kwon Y. J., & Le, M. Y. (2023). The role of kinesiotherapy in stroke rehabilitation: Mechanisms and clinical outcomes. Journal of Clinical Neuroscience, 29(2), 112-120.
5. Miller S. L., & Robinson C. L. (2022). Motor dysfunction and rehabilitation following ischemic stroke: Approaches to treatment. Neurorehabilitation Review, 16(1), 29-41.
6. Tursunov R. S., & Ergashev, S. T. (2021). Akupunktura va fizioterapiya usullarining insultdan so‘ng bemorlar reabilitatsiyasidagi ahamiyati. Reabilitatsiya va fizioterapiya ilmiy jurnali, 17(1), 34-40.
7. Pachpute, R., Jadhav, A., Shinde, A., Naik, K., & Gawai, S. V. A Survey on “Medicines at Your Fingertips”.
8. Rakhmanov A. A., Mamasolieva S. U., Rakhmanov I. A. Notravmatik miya ichi qon quyilishlarini davolashda girudoterapiya //Zamonaviy tibbiyot jurnali (Журнал современной медицины). – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 45-51. 72.Saghir F., Mratskova G.
9. The effectiveness of rehabilitation medicine in the treatment of post-stroke patients //KNOWLEDGE-International Journal. – 2022. – Т. 52. – №. 4. – С. 443-448
10. Stanton R. et al. Risk of intracerebral haemorrhage from hypertension is greatest at an early age //European Stroke Journal. – 2021. – Т. 6. – №. 1. – С. 28-35. 74.Sokolova L. et al.
11. Вплив інгібіторів НЗКТГ-2 на функцію мітохондрій метаболізм ліпідів і атерогенез у хворих на цукровий діабет 2 типу (огляд літератури та власні дані) //Problems of Endocrine Pathology. – 2023. – Т. 80. – №. 4. – С. 95-108.
12. Varsak S., Yildiz A. Music-assisted physical therapy and rehabilitation //complementary medicine from ancient times to the present. – с. 60.
13. Wang W. et al. Risk factors and prediction of stroke in a population with high prevalence of diabetes: the strong heart study //World Journal of Cardiovascular Diseases. – 2017. – Т. 7. – №. 5. – С. 145.

14. Winston D. Adaptogens: herbs for strength, stamina, and stress relief. – Simon and Schuster, 2019.
15. Wei C. et al. Effects of Manual Acupuncture Versus Sham Acupuncture in patients with Post-Stroke Depression: A Randomized Clinical Trial //Neurology and Therapy. – 2024. – Т. 13. – №. 6. – С. 1717-1735.
16. Wang M. et al. Use of Kinesiotaping in lower-extremity rehabilitation of poststroke patients: A systematic review and meta-analysis //Complementary therapies in clinical practice. – 2019. – Т. 35. – С. 22-32.
17. Xasanova D. Ozonterapiyaning ta'siri //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 23-33.
18. Zanchetti A. From risk factors to treatment of hypertension //Journal of Hypertension. – 2016. – Т. 34. – №. 1. – С. 1-2.
19. Zhang S, Zhang W, Zhou G. Extended Risk Factors for Stroke Prevention. J Natl Med Assoc. 2019 Aug;111(4):447-456.
20. Zubercová A. J., Šrubařová M. S. Rehabilitation Plan and Process of Patients after Stroke. – 2021.
21. Shukla V., Mishra S. K., Pant H. C. Oxidative stress in neurodegeneration //Advances in Pharmacological and Pharmaceutical Sciences. – 2011. – Т. 2011. – №. 1. – С. 572634.
22. Chen G., Levy D. Contributions of the framingham heart study to the epidemiology of coronary heart disease //JAMA cardiology. – 2016. – Т. 1. – №. 7. – С. 825-830.